


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


(Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi
asosida shakllantirildi)



Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

3

23 512




Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

1 285



Oilaviy korxona

147



Unitar korxona

6 061



Xususiy korxona

23



Aksiyadorlik jamiyati


399



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2022- y. ■ 2023- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2023- yil yanvar oyida, birlikda)

4




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar oyida)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


5



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofimlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 1 424 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 198 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 285 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 12 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 80,0 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 25 504 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 572 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 512 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 343 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 332 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 111,8 foizga oshganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra 324 tani tashkil etib, ulardan 309 tasi yoki 95,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 29 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida viloyatimizda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga, birlikda)



**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


8

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	71	51	20
Qozog'iston Respublikasi	15	9	6
Xitoy Xalq Respublikasi	58	30	28
Qirg'iziston Respublikasi	11	9	2
Tojikiston Respublikasi	14	10	4
Turkiya Respublikasi	41	15	26
Hindiston Respublikasi	14	5	9
Janubiy Koreya Respublikasi	28	18	10
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

9



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Namangan viloyati	309	182	127
Namangan shahri	110	55	55
Mingbuloq	6	2	4
Kosonsoy	31	22	9
Namangan	20	16	4
Norin	11	6	5
Pop	33	24	9
To'raqo'rg'on	13	6	7
Uychi	17	14	3
Uchqo'rg'on	9	4	5
Chortoq	22	11	11
Chust	24	14	10
Yangiqo'rg'on	13	8	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 110 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,6 %), Pop 33 ta (10,7 %), Kosonsoy 31 ta (10,0 %), Chust 24 ta (7,8 %), Chortoq 22 ta (7,1 %), Namangan 20 ta (6,5 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

11




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro'yxatga olingan 38 688 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (33,0 %), Chust (8,1 %), Namangan va Uychi (6,5 %dan), Uchqo'rg'on (6,4%), Pop (6,3 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Chortoq (6,1 %), Kosonsoy (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil yanvar oyida, birlikda)


2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro'yxatga olingan 374 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (32,1 %), Chortoq (12,0 %), Pop (9,6 %), Mingbuloq (9,1 %), Chust va Yangiqo'rg'on (6,1 %dan), Norin (5,9 %), To'raqo'rg'on hamda Uychi (5,1 %dan), Uchqo'rg'on (3,8 %), Namangan (2,7 %), Kosonsoy (2,4 %) hamda tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko'rsatayotgan 23 512 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (37,0 %), Uychi (6,7 %), Chortoq (6,6 %), Pop (6,5 %), Uchqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (6,1 %), Chust (5,9 %), Namangan (5,7 %), Norin (5,3 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,9 %) tumanlari hissasiga tegishli.




O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)



14



2023- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 305 ta oilaviy korxonalarning), ulushi Namangan shahri (41,7 %), Pop va Chust (16,7 %dan), To'raqo'rg'on, Namangan hamda Mingbuloq (8,3 %dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.